

OSIYLIKDAN SOQIYLIKKA QADAM

Nurullayeva Zaxro

*ToshDO‘TAU ingliz tarjima nazariyasi
va amaliyoti 4-kurs talabasi
nurullayevazaxro33@gmail.com*

Annotatsiya: *Ushbu maqola Sharq va G‘arb adabiyotidagi zamon va makon masalasi, asarlar o‘rtasidagi o‘xshashliklar, Lev Tolstoyning “Avliyo Sergey” va Fotih Dumanning “Men. Bas qil, ey nafs” asarlarining qiyosiy tahlili, ular o‘rtasidagi xususiy va mushtarak jihatlar bayon qilingan. Sharq allomalarining nafs masalasi yuzasidan keltirib o‘tgan fikrlari va tahlili asosida mavzuning ijtimoiy, ma’naviy jihatlariga atroflicha to‘xtalib o‘tilgan.*

Kalit so'zlar: *katarsis, nafs, ekzistensial ta’sir.*

Abstract: *This article discusses the concepts of time and space in Eastern and Western literature, the similarities between literary works, and provides a comparative analysis of Lev Tolstoy’s “Father Sergius” and Fatih Duman’s “Enough, O Ego”, highlighting their individual and shared characteristics. The article details their particular and shared aspects. Drawing on the views and analyses of Eastern scholars regarding the ego issue, the social and spiritual dimensions of the topic are considered at length.*

Keywords: *catharsis, lust, existential influence.*

Adabiyot inson ruhiyatining shakllanishida muhim vazifani o‘tovchi poydevor hisoblanadi. Adabiy muhit orasiga kirib ulgurgan kitobxon esa ma’naviy va ma’rifiy hayotdan bahramand bo‘lish bilan bir qatorda jamiyat, qadriyatlaridan xabardor bo‘lib, o‘z o‘tmishi va an’analari, o‘git va xulosalar bilan fikrlashini boyitadi. Har bir o‘quvchi mutolaa jarayonida u yoki bu asardan ta’sirlanadi, u haqida fikr yuritadi va xulosa chiqaradi. Adabiyot shunday kuchdirki, uni o‘rgangan inson katarsis jarayoniga, ya’ni ruhiy poklanishga uchrayveradi.

Adabiy asarlar bilan tanishish jarayonida ba’zi asarlarning o‘xshash va farqli jihatlariga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Bunga sabab sifatida davr, makon va zamon, madaniyat va qadriyatlar, an’analari, xalq o‘tmishi kabi turlicha masalalar qamrab olinishi mumkin. Makon jihatidan Sharq va G‘arb adabiyoti namunalari o‘rtasidagi xususiylik va mushtaraklik masalasi ayrim o‘rinlarda farqlansa-da, ikki muhit adabiyoti namunalariidan ham inson o‘ziga ba’zan ayri, ba’zan esa o‘xshash xulosalarni chiqara olishi mumkin. Sharq va G‘arb adabiyotidagi farqlarga to‘xtalish jarayonida G‘arb adabiyoti o‘z asarlariga Yunon-Rim adabiyotini qolip sifatida olishi, Sharq adabiyoti muhim o‘ringa Qur’oni Karim va Hadisi Shariflarni dastur sifatida

qo'yishiga guvoh bo'lamiz. G'arbda jamiyatning ong osti kutishidan bir obraz yaraladi va shu obraz keyingi avlodlar uchun siymo bo'lib xizmat qiladi, Sharq adabiy muhitida esa tarixda o'zida ezgu sifatlarni kuchli mujassam etgan insonlar keyinchalik qahramon darajasiga chiqadi. Har ikki adabiy muhit jarayonida adabiyot o'ziga xoslikni ifoda etib, o'sha xalqlarning madaniyatini, dunyoqarashini, qadriyatlarini va hayot tarzini o'zida mujassam etadi. Shu jumladan, har ikki adabiyotda ham inson hayoti, muhabbat, qahramonlik, axloqiy muammolar, tabiiy ofatlar, umid va umidsizlik, hayot va o'lim kabi universal mavzular markaziy o'rin tutadi. Sharq va G'arb adabiyotlarida keltirilgan asarlarda odamzodning hayotga bo'lgan munosabati, uning ichki dunyosi, orzulari va izlanishlari bir xil mavzularni qamrab oladi.

Sharq va G'arb adabiyoti namunalarida nafs masalasi ham alohida ahamiyat kasb etadi. Ikkala madaniyatda ham nafs insonning ichki ruhiy dunyosiga salbiy ta'sir ko'rsatishi aks etadi. Sharq adabiyotida nafs diniy va ma'naviy jihatlardan salbiylashtirilgan bo'lsa, G'arbda u psixologik va ekzistensial ta'sir bilan tasvirlanadi. Sharq adabiyotida nafs ko'pincha insonning ichki kamchiliklari, dunyoviy orzu-havaslari, g'azab, hasad, orzu va ishtahalarini ifodalovchi kuch sifatida qaraladi. Nafs bilan kurashish Sharq adabiyotining ko'plab asarlarida asosiy motiv sifatida paydo bo'ladi. Bu kurash, asosan, diniy va ma'naviy poklanish yo'li bilan amalga oshiriladi. Nafsni tarbiyalash jarayoni ma'lum bosqichlarga ajratilgan bo'lib, shu bosqichlardan o'tgan insongina komillik darajasiga erishadi. Eng yuqori darajasi nafi komila, ya'ni mukammal, poklangan nafs¹ sanaladi. Oddiy kishilarning nafs tarbiyasi bilan bu darajaga yetib kelishlari qiyin, ammo komil nafs egasi bo'lishga intilish yuqori ma'naviyat nishonasi hisoblanadi.

Nafs insonga avvaldan berilgan narsa, Alloh taolo bandalarini sinash maqsadida ularga nafsni bergan. Nafs shunday kuchdirki, unga Hakim Termiziy quyidagicha ta'rif bergan:

“Bir shaytonning bir soat ichida halok aylaganini yuz och arslon bir suruv qo'y ichida halok aylay olmas. Nafsning bir soat ichida qilgan ishini yuz shayton ham qila olmas”.²

Islom dini va tasavvuf falsafasida nafs insonning ichki dunyosidagi eng xavfli narsa sifatida ko'riladi. Tasavvufda nafs, odatda, insonni haqiqiy yuksalish va Allohga yaqinlikdan uzoqlashtiruvchi kuch sifatida qaraladi. Nafsni yengish, shaxsning ruhiy tozaligiga va ma'naviy rivojlanishiga olib keladi. Tasavvufda nafsni yengishning eng yuqori shakli — bu o'z-o'zini inkor qilish, o'z manfaatlarini bir chetga surib, butunlay

¹ Duman F. Men. Bas qil, ey nafs. 2023. B – 247

² Xislatli hikmatlar sharhi 2-kitob. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. "Hilol nashr". Toshkent 2019.

Allohga bo'ysunish va ruhiy poklanishga erishishdir. Bunga misol tariqasida bestseller darajasiga ko'tarilishga ulgurgan kitob Fotih Dumanning **“Men. Bas qil, ey nafs”** asarini olishimiz mumkin. Ushbu asar avval qozi bo'lgan, keyinchalik bu mansabni nafsni tarbiyalash uchun tark etib, bozorda jigarchilik sotishgacha o'zini majburlagan avliyo Aziz Mahmud Xudoyi haqidadir. Bu asarni o'qish jarayonida haqiqatdan ham kitobxon o'zini ko'ra oladi, o'z nafsining fikrlari ila hayot yo'lini davom ettirayotganini ko'rib bir tomonlama azoblansa, boshqa tomonlama vijdoni bilan birgalikda o'zligini tarbiyalashga, nafs bilan emas, qalbi ila fikrlashga harakat qiladi. Asar bir maromda faqat bir qahramon tilidan olib borilmaydi, u umumiy insonlarning hayotini hikoya tarzda olib borish ila davom ettiriladi.

*“Allohga osiy bo'lgan shayton har ishni qila olishiga ishonasan-u, Allohning izni bilan Allohning bir do'sti qila oladigan ishga nima uchun ishonmaysan?”*³

Yuqoridagi fikr Mahmud ota tomonidan qozi Mahmud afandiga aytilib, aynan shu fikr uning o'zligini topishga, fikrlashga undashga, men asli kimman degan savolning javobini topishga undagan va bir insonning o'zgarishiga, tasavvuf tomon intilishiga turtki bo'lgan edi. Bu asarda nafs insonga pinhona emas, oshkora so'zlagan, ammo shunda ham o'zida topa olgan haqiqiy qahramon uni yengish uchun haqiqiy g'ayrat topa olishi yaqqol namoyon bo'lgan. Istanbuldagi bir inson tomonidan shu kitobning sotib olinishi va bu kitobning o'qilishi jarayonidagi fikrlar har bir kitobxonning fikri bilan ayni bir xil kelmasa ham, o'xshash jihatlari ko'p uchraydi. Xususan, Fotih Dumanning shu kitobdagi qahramonni kiritishdan ham maqsadi ham aynan o'zlikni anglash, tafakkur qilish, o'tmish va ayni hayot bilan inson birdek nafs yo'lidagi kurashda mardonavor harakat qilishga zamin yaratishdan iboratdir. Asardagi muhim obrazlardan biri Uftoda hisoblanadi. Chunki shu avliyo obrazi orqali Mahmud aynan Xudoyi nomiga erishadi, nafsiga qarshi kurashda qancha ezilmasin, qancha siqilmasin, ustozi mardonavor kurashga bel bog'lashiga yordam beradi⁶ alam ila toshayotgan dardlariga aynan shu Uftoda obrazi orqali davo topadi. Asarni mutolaa qilish davomida biz Uftoda, Aziz Mahmud Xudoyi kabi obrazlarni biz yuqorida aytib o'tgan komil nafs (nafs komila) darajasiga yetgan deya xulosa chiqarishimiz shubhasiz, chunki biz Xudoyi obrazi orqali nafsning darajalarini bosib o'tish yo'llari va bu jarayon davomida bo'lgan qiyinchiliklar haqida anglab yetishimiz mumkin.

Sharq adabiyoti bilan bir qatorda G'arb adabiyoti namunalaridagi nafs masalasiga e'tiborimizni qaratadigan bo'lsak, Lev Tolstoyning **“Avliyo Sergey”** asari xayolimizda beixtiyor gavdalanadi. Muallif shu asarni yozishi davomida quyidagi fikrlarni o'z kundaligiga yozgan ekan: *“Men shuhratparastlik mayliga berilgan edim. Hozirgi maqtovlar va muvaffaqiyat bularning hammasi betayin ish ekanini ko'rsatib*

³ Duman F. Men. Bas qil, ey nafs. 2023. B – 66

berdi. Hozir men ma'naviy jihatdan bir qadar uyg'ongandayman. Bu uyg'onish bundan ikki kun avval yuz berdi".

Asar avtobiografik tuzilishga ega bo'lib, ayni Tolstoyning o'zini eslatib yuboradi. Kasatskiyning yashash tarzi, fikr-o'ylari, hayot va Xudoni tushunishi, bu boradagi qarashlari muallif bilan o'xshash. Bu asarda Tolstoy bosh qahramon qismati orqali o'z ichki dunyosini, fikrlar mavji, tafakkur masalasi, Xudoni tanish va nafsni yengish masalalarini bosh mavzu sifatida qalamga olgan. Tolstoy asarlarida ko'pincha boy daraja vakillari va ularning hayot tarzini qalamga olib, o'quvchiga u yoki bu masala jihatidan o'z xulosalarini berishga harakat qiladi.

Asar avvalida Kasatskiy nomi bilan tanilgan yosh gvardiyachi otasining vasiyatiga binoan, harbiy korpusga topshiriladi. U yerda hammadan o'rganishda ham, o'zlashtirishda ham avvalga o'tib ketgan bu yosh yigit imperator Nikolay Pavlovichga mehr qo'yadi, unga sadoqatini har tomonlama bildirishga, unga va vataniga bo'lgan muhabbatini ko'rsatishga harakat qiladi. Ammo yuqori kibor oilasi vakilasi va uning qallig'I hisoblangan Merining imperator bilan bo'lgan munosabatini bilgach, u hammaga o'zining zo'rligini isbotlash va o'zining boshqalardan ancha yuqorida ekanligini isbotlash uchun rohiblik yo'lini tanlaydi. *"Har kuni bir oyatni qayta-qayta eshitish nima uchun kerakligini bilmayman-u, biroq shu narsa kerakligini bilaman. Kerakligini bilgach esa undan qoniqish his etaman"*.⁴ Sergeyning aynan shu fikri bilan uning rohiblar hayotida shunchaki shuhratparastlik uchun kirganligi ko'rsatib o'tilgan. Cherkovga qadam qo'yganining yettinchi yilida unga Sergey nomi beriladi. Nafsini yengish uchun qancha harakat qilmasin, baribir yengiladi. Sergey Xudodan emas, insonlarning gap-so'zidan qo'rqib harakat qiladigan, asli o'zini topa olmagan obrazdir. O'zligini anglash jarayoni Pashenka bilan uchrashuvi va muloqot jarayonida ro'y beradi. Pashenka mardonavor ayol, qancha qiyinchiliklarga uchragan, hayot tarzi yaxshi bo'lmasa-da, shuning o'ziga shukur qilib yashaydigan inson. Sergey aslida hayotda o'rnini, o'zligini keyinchalik anglab yetgan obraz hisoblanadi. Eng muhimi, asar so'ngida u haqiqiy avliyo Sergey nomiga munosib obraz bo'la olgan..

"Avliyo Sergey" va "Men. Bas qil, ey nafs" asarlari voqealar rivoji jihatidan bir-biriga o'xshamasa-da, mazmun jihatdan mushtarak asarlardir. "Men. Bas qil, ey nafs" asarida Aziz Mahmud Xudoyi nafs bosqichlaridan birma-bir o'tib, keyiniga komil nafs egasi bo'lish darajasiga yetgan. Ammo Kasatskiy, ya'ni Sergey haqida bunday deya olmaymiz. Sergey nafsiga qul bo'lgan, keyinchalik o'zligini anglab yetgan obrazdir. Lekin ikki asar so'ngida ham ikki obraz asosiy masala – nafsni yengish vazifasini uddalay olgan.

⁴ Tolstoy L. Sergiy ota. 2013. – B-10

Ikki asarda nafs obrazi turlicha tasvirlangan. Xudoyining nafi uning ichida, unga nafs mayliga oid fikrlarni yetkazib turuvchi, uni shon-shuhrat, mansabga qiziqtiruvchi va unga yetishishga, manmanlikka erishishga undovchi ichki obrazdir. Avliyo Sergey bilan esa nafs sinovi insonlar, ya'ni ayollar ko'rinishida ifoda etadi. Birinchisi, uyida tunab qolish va uni yo'ldan ozdirish uchun kelgan ayol. Bu ayol obrazi uning, aslida, nafi ustidagi garov uchun boshqalar bilan bel bog'lashgan bo'ladi. Unga nisbatan shahvoniy hislarni yengish uchun Sergey qo'lini olovga tutadi, chap qo'lidagi ko'rsatkich barmog'ini olib chopib tashlaydi. Bu shaytoniy obraz maqsadiga erisha olmaydi va Sergey bilan yuz bergan voqealar uni poklanish va tavba qilishga tomon yo'l ochib berishiga, ruhoniyluk yo'lini tanlashiga yordam beradi. Ikkinchi shaytoniy obraz ham ayol kishi hisoblanib, u savdogarning yigirma ikki yoshdagi qizi edi. Savdogarning qizi betob bo'lib, shu sabab bilan Sergey ularning uyiga, aynan shu qiz Maryani davolashga keladi, ammo bu o'rinda Sergey ota o'z nafsining qurboni bo'ladi va unga nisbatan shahvoniy munosabat bildiradi. Bu voqea o'tgach, nomining nopokligini boshqalar ham bilishini istamagan Sergey qizni bolta bilan chopib tashlaydi. Ammo bu o'zining ichki tomondan o'zini ayblashini to'xtata olmaydi.

Har ikki asarda ham shon-shuhratga berilish yaqqol ko'rsatib berilgan. Asar avvalida qozilik darajasiga ko'tarilgan Mahmud endilikda kimxob kiyimlar kiyishni, chiroyli po'stin kiyib, insonlar uni ko'rganida maqtashini, insonlar e'tiborida ekanligidan faxrlanish hissi bilan yashaydi. O'zidan yoshi ancha katta inson kelganda ham, nafsiga beriladi, unga mensimay munosabat bildiradi, fikrlarini ham istamaygina eshitadi. Avliyo Sergeyda ham shuhratparastlik juda kuchli bo'ladi, u rohiblik qilib yurgan vaqtida yangi mansabga ko'tarishlarini eshitgan vaqt boshqalarni mensimay qolishi, shon-shuhrat ko'zini ko'r qilganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin.

Yomon xayoli uchun tavba qilish vaziyati ham har ikki asarda uchraydi. Qish mahali Uftoda Mahmudni uzum olib kelishga yuborgan vaqt, ilohiy kuch orqali u qahraton qishda uzum topa oladi. Shu vaqtida u kibrlanib ketadi va birdan qiyinchilik boshiga keladi, shu vaqtida u Allohga kibrlanganligi va manmanligi uchun tavba qiladi. Stepan Kasatskiy ham xuddi shunday obraz, tabobat darajasidagi ilmi dunyoga yoyilgach, shuhratparastlikka beriladi, hatto savdogarning qizini davolash uchun tabobat jihatdan kuchliligi uchun emas, shifokorlik mahoratini boshqalarga namoyon qilish va bu orqali uning nomi gazetalarda yozilib, podshogacha xabari yetishi, butun Yevropada u haqida bilishlarini istagani uchun bormoqchi bo'ladi. Aynan shu vaqtda u o'ylaganlari nafi tomonidan kelayotganini his qilib, o'sha payt birdan Xudodan najot tilaydi.

Yangi mansabga erishish yo'lida ko'makchi obrazlar sifatida Nazirzoda Ramazon va imperator Nikolay Pavlovich olinadi. Dunyoviy kasblarga yetishishida har ikki obraz bu ikki qahramonni o'ziga ustoz sifatida ko'radi. Qozilik yo'lidagi ustoz

Nazirzoda Ramazon Mahmudga ilm olishida yordam beradi, unga boshqacha mehr bildiradi, uni xuddi o'g'lidek ko'radi. Imperator Nikolay Pavlovich ham Sergeyga boshqacha munosabatda, yosh Stepanning boshqalarga o'xshamas ilmga chanqoqligi uning e'tiborini tortadi. Har ikki asarda ham obrazlar o'zlariga ustoz sifatida qabul qilgan insonlarga boshqacha munosabatda bo'lib, ulardek bo'lishga intiladi. Ammo ikki asarda ham nafsiga qarshi kurash jarayoni yolg'iz olib boriladi, ikki dunyoviy ustoz bilan muddat o'tib xayrlashish holati yuz beradi va bu holat bir muddat ikki obraz dunyosining o'zgarishiga ta'sir qilmay qolmaydi.

Har ikki asarda ham obrazlarga o'zligini anglash uchun asosiy qahramonlarga yo'l ko'rsatuvchi qahramonlar mavjud bo'lib, "Men. Bas qil, ey nafs" asarida Mahmud ota va Uftoda obrazi, "Avliyo Sergey" asarida Pashinka bu vazifalarni bajaradi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, Pashinka oddiy ayol. Shunday bo'lsa ham, hayotida qancha qiyinchilikka uchraganiga qaramay, hammasiga sabr va shukur bilan yashab kelayotgan inson sifatida gavalangan. Asarda Sergey emas, aslida Pashinka Xudo yo'lida munosib hayot kechiradi. Bu narsalarni Sergey asar oxirida anglab yetdi va bundan buyog'iga haqiqiy avliyo bo'lib hayot kechirishga harakat qiladi, polizda ishlaydi, bolalarni o'qitadi va kasallarni davolaydi. Qozi Mahmudni avval Mahmud ota Haj masalasidagi suhbat davomida qoziga asl Allohga ishonish qanday bo'lishini hamda hayotda uchrashiga ishonish qiyin deb hisoblangan hodisaning ro'y berish bilan tafakkurga undaydi, so'ngra uni avliyo ustoz Uftoda oldiga yubordi. Uftoda Mahmudning Xudoyi bo'lish yo'lida nafsidan voz kechish, men deb emas, Alloh deb yashash uchun haqiqiy yo'l qanday bo'lishini ko'rsatadi. Bu yo'lida Xudoyi qozilikdan voz kechib, bozorda jigar sotadi, xojaxona tozalaydi, darveshlarcha hayot kechiradi. Bir nafas bo'lsin nafsiga yengilmaslikka harakat qiladi, chiranadi, kurashadi va bunga erishadi.

Umumiy olib qaraganda guvohi bo'lganimiz ushbu ikki asar asosidagi ayrim voqealar va ularning xulosalari o'zaro o'xshash bo'lsa-da, mualliflar har ikki asarning hikoya qilinishida o'ziga xos, takrorlanmas yozish yo'lidan, tasvir usulidan foydalanganlar. Xususan, har qanday asar qaysi mintaqada yozilishidan qat'iy nazar, hamisha kitobxonni ma'lum bir masala yuzasidan fikr yuritib, tafakkur qilishga, o'zligini anglashga, qiyinchiliklarni qisman yengishga va hayotda mavjud tugunlarga yechishga xizmat qiluvchi mayoq vazifasini o'taydi va yuqoridagi ushbu ikki asar bu vazifani to'laqonli bajarib o'tganiga hech shubha yo'q. Aslida asosiy maqsad ham aslida shu, chunki adabiyot inson ruhiyatini poklovchi yo'ldir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Duman F. Men. Bas qil, ey nafs. – Toshkent: Nasim kutub. 2023 – 297 b.
2. Hakimjonova D. Majusiy zohid qismati // Qiyoosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik. – Toshkent: O'zbekiston: til va madaniyat. 2024 – 185 b.

3. Suvon Meli. So‘z-u so‘z. – Toshkent: Sharq. 2017 – 500 b.
4. Tolstoy L. Sergiy ota. – Toshkent: Jahon adabiyoti jurnali. 2013 – 208 b.
5. Shermataliyev O. Tasavvuf ta’limotida nafs tarbiyasi //. – Toshkent: Iqro. 2023 – 169-172 b.

